



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–sentyabr oylariga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1488 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **1,3 f.p kamaydi**.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1325 taga oshgan**.


2018 yilning yanvar-sentyabr oyida Respublikada 2085 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 588 ga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,9 % ga kamaygan hamda ularning soni 760 ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1488 ta (10,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15230 ni tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Nukus shahrida (32,2 %), To'rtko'l (9,7 %), Beruniy (8,4 %) va Amudaryo (7,3 %) hududlarida kuzatilmoqda.


## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Qoraqalpogiston Respublikasi	15713	100,0	15230	100,0
Nukus sh.	5029	32,0	4909	32,2
<i>tumonlar:</i>				
Amudaryo	1146	7,3	1119	7,3
Beruniy	1303	8,3	1272	8,4
Qanliko'l	412	2,6	406	2,7
Qorao'zak	445	2,8	442	2,9
Kegeyli	465	3,0	464	3,0
Qo'ng'iro't	882	5,6	837	5,5
Mo'ynoq	257	1,6	254	1,7
Nukus	653	4,2	632	4,1
Taxiatosh	445	2,8	426	2,8
Taxtakopir	300	1,9	292	1,9
To'rtko'l	1589	10,1	1476	9,7
Xo'jayli	803	5,1	754	5,0
Chimboy	602	3,8	582	3,8
Shumanay	377	2,4	368	2,4
Ellikkala	1005	6,4	997	6,5


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,9 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,1 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,3 f.p. kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,4 % savdoda, 12,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 11,0 % sanoatda, 10,7 % qurilishda, 5,8% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,9% tashish va saqlash, axborot va aloqada 1,9 % hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,8 % dan, 31,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-sentyabrda 2085 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 39,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Nukus shahrida (649 ta), To'rtko'l (169 ta), Amudaryo (156 ta) va Beruniy tumanida (131 ta) tashkil etilgan. Eng kam Mo'ynoq (57 ta), Kegeyli (56 ta) hamda Taxtako'pir (44 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (366 ta), savdoda (343ta), qurilishda (304 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (292 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarida (38 ta) hamda axborot va aloqada (17 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-sentyabr oilariga.	2018 yil yanvar-sentyabr oilariga.
<b>Jami:</b>	<b>1497</b>	<b>2085</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	342	292
Sanoat	325	366
Qurilish	166	304
Savdo	244	343
Tashish va saqlash	47	65
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	113	111
Axborot va aloqa	30	17
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	35	38
Boshqa turlari	195	549

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 oktyabr holatiga 11712 tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 2832 ta, oilaviy korxonalar – 615 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 7943 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 30 ni va boshqalar 292 ni tashkil etadi.







## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 109 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 33 taga yoki 43,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 61 tasi qo'shma korxonalar, 48 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Nukus shahar 21 ta (19,3 %), Mo'ynoq tumanida 12 ta (11,0 %), Kegeyli tumanida 10ta (9,1 %), va Nukus tumani 9ta (8,3 %) Taxiatosh tumani 8ta (7,3%),Qo'ng'irot tumani 7ta(6,4%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Shumanay va To'rtko'l tumanlarida 2 tadan (1,8 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish bo-rasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 54 ta (49,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 31 ta (28,4 %), savdoda 15 ta (13,8 %) , eng kamlari esa qurilishda 3 ta (2,8%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,8 %), tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tadan (0,9 %), tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi qishloq va o'rmon xo'jaligi, sanoat hamda savdo faoliyat turlariga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-sentyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 27 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16 taga ko'paygan yoki 2,4 baravarga oshgan.


Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi kapitali ishtirokida – 7 ta, Qozog'iston Respublikasi – 6 ta, Pokiston Islom Respublikasida - 4 ta, Rossiya Federatsiyasi - 1 ta va boshqa davlatlardan 7 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, (1 oktyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 14 ta, sanoatda 9 ta, savdoda 2 ta, qurilishda hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyat turlarida 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11641 ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 9,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 4066 (34,9 %) Nukus shahriga, 1230 (10,6 %) To'rtko'l, 999 (8,6 %) Beruniy hamda 818 (7,1 %) Amudaryo tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11641 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3089 (26,5 %) – savdoda, 1829 (15,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1623 (13,9%) - qurilishda, 1647 (14,1%) - sanoatda, 881 (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 741 (6,4 %) - tashish va saqlashda, 250 (2,2 %) - axborot va aloqa sohasida, 200 (1,7%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1381 (11,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, qurilishga va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr oilarida 1658 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 19,7 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahrida (560 ta), To'rtko'l (148 ta), Amudaryo (124 ta) va Qo'ng'rot tumanida (102 ta) tashkil etilgan. Eng kam Taxtakupir (27 ta), Q'anliko'l (35 ta), Muynak (39 ta) va Kegeyli (41 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (366 ta), savdoda (343 ta), qurilishda (304 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (290 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (17 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (37 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 634 tani tashkil etib, ulardan 615 tasi yoki 97,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **24,0%** ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 29,4 % yoki 181 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 27,5 % yoki 169 tasi sanoat, 21,3 % yoki 131 tasi savdo, 8,1 % yoki 50 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 10 tasi axborot va aloqa, 2,3 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,7 % yoki 4 tasi qurilish, 0,3% yoki 2 tasi tashish va saqlash hamda 8,8% yoki 54 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

**Z.Qalmuratova**  
(0371) 230-82-23



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan**